

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI  
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.  
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА  
И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.**

*Bank ishi va audit yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

*Panjiyeva Mahliyo Muxtor qizi*

*Tayanch so'zlar: iqtisodiyot, xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, bozor munosabatlari, soliqlar.*

*Ключевые слова: экономика, частное предпринимательство, малый бизнес, рыночные отношения, налоги.*

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik ba'zasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakillantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlar yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlarni yaratildi.

Natijada so'ngi o'n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizdan 74,5 foizgacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlari hissasiga to'g'ri keladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturiga muvofiq, joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes muhitini

yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandistlik kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvchilardan ozod etish muddati ikki yildan uch yilgacha uzaytirildi. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes sub'ektlarini, ayniqsa ularning yuqori texnologik uskunalarni xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizimi takomillashtirildi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlarining davlat soliq va nazorat idoralari tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma'muriy reglament to'liq ishlab chiqarilmagan. Ochiqligi ta'minlanmagan ko'plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlab qolmoqda. Nazorat idoralarining tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo'yicha amaliy mexanizm yaratilmagan. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivijlantirishning asosiy omillaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivijlantirishdir.

Binobarin, tadbirkorlik faoliyati tizimining alohida tahlili dastlab G'arbda boshlangan bo'lsada uning mohiyati va rivojlanishiga taalluqli ko'p qirrali bilimlar Sharqda tarkib topgan, so'ngra G'arbda ilgari surilganiga yuqorida zikr etilgan dalillar guvohlik beradi. Uch ming yillik tarixga ega Zardushtiylik ta'limotlari, jumladan, "Naqshbandiya", "Yassaviya", "Kubroiya" ta'limotlarida mujassamlangan.

Ayniqsa bu jihatdan "Naqshbandiya" ta'limotining ildizlari chuqur

mazmunga ega “Naqshbandiya” ning “Dil bo yoru dast ba kor “ ya’ni “diling Allohda qo’ling mehnatda bo’lsin”<sup>1</sup> degan ta’limot asoschisi Xo’ja Baxouddin Naqshbandiy kimxobga bog’lashda tadbirkorlik mahoratini namoyish etib, halol mehnat bilan yashash zarurligini ibrat qilib ko’rsatgan.

Bahouddin Naqshbandiy mashhur G’arb iqtisodchi olimi xususan, Vilyam Pettidan 400 yil muqaddam mehnat insonlarning yashash manbai ekanligini chuqur anglagan va amalda o’z faoliyati doirasida isbot etgan. Ammo Vilyam Pettining “Boylikning otasi mehnat, onasi esa yerdir “ degan ta’limoti jahon iqtisodiy nazariyasi fanida yangi bosqich sifatida e’tirof etilgan holda Naqshbandiyaning undan avvalroq hamda chuqur iqtisodiy va ma’naviy mazmunga ega bo’lgan yuqorida qayd etilgan ta’limoti hozirgacha na G’arb va na mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda munosib o’rin egallamagan.

Tadbirkorlik bo’yicha bilim va amaliy faoliyatlar zaminimizda hukumdor bo’lgan buyuk shaxslar Sohibqiron Amir Temurning “Tuzuklari” da Mirzo Boburning “Boburnoma” asarida yorqin ifodasini topgan. Buyuk sarkarda Amir Temur mamlakat osoyishtaligini va mo’l-ko’liligiga erkin tadbirkorlik faoliyatiga ustuvorlik berilishi orqli erishish mumkinligini chuqur idrok etgan va uning tamoyillari mashhur “Temur tuzuklari” asarida aniq bir tizimga keltirilgan bo’lib unga ko’ra “mardlik va shijoat sohibi ,a’zmi qat’iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”<sup>2</sup> degan xulosani ilgari surgan.

Ta’kidlash joizki, Amir Temur nafaqat tinchlik davrida, balki urush holati jarayonida ham tadbirkorlik faoliyatini yuqori darajaga ko’targan va bu yo’nalishda amaliy ishlarni ham ro’yobga chiqargan .Ma’lumotlarga ko’ra harbiy yurish chog’larida qo’shin ehtiyojlarini ta’minlaydigan turli xil kasbga ega tadbirkorlarni olib yurilgan va ularning muayyan qismi 3,5,7 yillik, deb nomlangan va oxirgi Xitoyga qarshi harbiy yurishlari paytida dehqonchilik bilan mashg’ul bo’lib, qo’shinni oziq-ovqat bilan ta’minlab turgan.

---

<sup>1</sup> <https://arxiv.uz/uz/>

<sup>2</sup> <https://arxiv.uz/uz/>

Ma'lumotlarga qaraganda, 1401-yili Amir Temur navbatdagi harbiy yurishlaridan birida Qarobog' (hozirgi Qorabog'- Ozarbayjonda) qishlagan chog'ida mintaqa uchun nihoyatda zarur bo'lgan Nahri Barlos nomi berilgan kanalni bir oy ichida bitirib, suv keltirgani obodonchilik va tadbirkorlikka asos solgan bo'lib hozirgacha uning sahovatidan u yerliklar bahramand bo'lmoqda. Tadbirkorlik tushunchalarining hozirgi ma'nosida XVIII asr boshlarida ilk bor ingliz iqtisodchisi Richard Kanton qo'llagan edi. Uning fikricha, tadbirkor tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi kishidir. Keyinchalik, XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida mashhur fransuz iqtisodchisi J.B.Sey (1767-1832) "Siyosiy iqtisod risolasi" kitobida (1803 y) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch mumtoz omillari yer, kapital, mehnatning yaxlidligi deb ta'riflagan edi. Ingliz iqtisodchisi olimlari A.Smit (1723-1790) va D.Rikardo (1772-1823) iqtisodiyotni o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi mexanizm deb qabul qilganlar. Ushbu mexanizm tadbirkorlikka o'rin yo'q edi. "Xalqlar boyliglarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish" (1776-y) kitobida A.Smit tadbirkor ta'rifiga alohida e'tibor bergan edi. A.Smitning fikricha, tadbirkor kapital egasi. U muayyan tijorat g'oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi, chunki kapitalni biror bir ishga sarflash doimo tavakkalchilik bilan bog'liqdir.

Amerikalik iqtisodchi J.B.Klark (1847-1938) J.B.Sey "uchlik formulasiga, bir oz o'zgartirish kiritdi. Uning fikricha, ishlab chiqarishda doimo to'rt omil ishtirok etadi:

- 1) Kapital;
- 2) Ishlab chiqarish vositalari va yer;
- 3) Tadbirkorlik faoliyati;
- 4) Ishchining mehnati.<sup>3</sup>


Ingliz professori A.Xoskin esa "ishni o'z hisobidan olib boruvchi, biznesni boshqarish bilan shaxsan shug'ullanuvchi va kerakli vositalar bilan ta'minlash uchun shaxsiy javobgarlikka ega, qarorni mustaqil qabul qiluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor bo'ladi"-deb izohlaydi.

---

<sup>3</sup> [https://arxiv.uz/uz/  
www.tadqiqotlar.uz](https://arxiv.uz/uz/www.tadqiqotlar.uz)

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*


Tadbirkor faoliyatining kelajagi tadbirkorlik muhiti bilan belgilanadi, u esa jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustuvorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlashtirish sharoitining mavjudligi va zarur resurslardan foydalanish kiradi.



### **1-rasm. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR TARKIBI, %<sup>4</sup>**

2024-yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligida xorijiy investitsiyalar va kreditlar salmog'i joriy yilning 1-yarim yilligida qishloq xo'jaligida

asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 9,2 trln so'mni, Respublikada jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulishi 5,8 foizni tashkil etdi (**1-rasm**).



### **2-rasm. 2024 yil YANVAR-IYUN OYLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ-OVQAT SANOATI SOHALARIDA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA MA'LUMOT**

Joriy yilning 1-yarim yilligida qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 15,1 trln so'mni, Respublikada jami asosiy kapitalga kiritilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

2011-yilning 1-oktabirdan boshlab shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqni hisobga olish joyidagi soliq organiga yozma, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabarnoma yuborib, soliq auditi natijalari



bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini, shuningdek moliyaviy sanksiyalarni tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish natijalari yuzasidan soliq organi tomonidan qabul qilinganq qaror kuchga kirgan kundan e'tiboran olti oy mobaynida teng ulushlarda

(4- band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-sonli Farmoni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakillantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qo'llanma.